


VI. KICHIK BIZNES VA XUSUSIY TADBIRKORLIK

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlantirishni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash va rag‘batlantirish, ularning faoliyati uchun qulay muhit yaratish borasida amalga oshirilayotgan tadbirlar 2022- yilning yanvar-dekabrda 8 828 ta kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) tashkil etish imkonini berdi (2021- yilning shu davriga nisbatan 2,5 % ga kamdir).

Yangi tashkil etilgan kichik biznes subyektlari sonining iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha taqsimlanishi

2022- yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan %da




Iqtisodiy faoliyat turlari bo‘yicha eng ko‘p kichik korxonalar va mikrofirmalar savdoda 3 839 ta (jami tashkil etilgan subyektlarning 43,5 %), sanoatda 1 965 ta (22,2 %), xizmatlar sohasida 1 949 ta (22,1 %), qurilishda 541 ta (6,1 %), qishloq, o‘rmon va baliqchilik xo‘jaligida 534 (6,0 %), tashkil etilgan.

2022- yilning yanvar-dekabr holatiga kichik biznes subyektlarini (dehqon va fermer xo‘jaliklarisiz) soni 49 032 ta (o‘tgan yilning shu davrida 42 022 ta)ni tashkil etdi. Shundan faoliyat ko‘rsatayotganlari esa 46 350 tani (jamiga nisbatan 94,5 %) tashkil etdi.

Farg‘ona viloyatida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar *birklikda*

| | 2021- yil yanvar-dekabr | 2022- yil yanvar- dekabr | Farqi (+;-) |
|--------------------------|----------------------------|-----------------------------|----------------|
| Farg‘ona viloyati | 9 051 | 8 828 | -223 |
| <i>shaharlar:</i> | | | |
| Farg‘ona | 1233 | 1373 | 140 |
| Qo‘qon | 945 | 876 | -69 |
| Quvasoy | 333 | 334 | 1 |
| Marg‘ilon | 670 | 617 | -53 |
| <i>tumanlar:</i> | | | |
| Oltiariq | 475 | 428 | -47 |
| Qo‘shtepa | 305 | 334 | 29 |
| Bag‘dod | 439 | 422 | -17 |
| Buvayda | 489 | 465 | -24 |
| Beshariq | 390 | 428 | 38 |
| Quva | 481 | 368 | -113 |
| Uchko‘prik | 419 | 352 | -67 |
| Rishton | 397 | 382 | -15 |
| So‘x | 201 | 214 | 13 |
| Toshloq | 475 | 505 | 30 |
| O‘zbekiston | 456 | 444 | -12 |
| Farg‘ona | 393 | 362 | -31 |
| Dang‘ara | 421 | 455 | 34 |
| Furqat | 270 | 257 | -13 |
| Yozyovon | 259 | 212 | -47 |

2022- yil yanvar-dekabr oylarida shahar va tumanlar bo‘yicha yangi tashkil topgan jami kichik korxonalar va mikrofirmalarning ulushi *2022- yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan, %da*




2022- yil yanvar-dekabr oylarida yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar hududlar bo‘yicha eng ko‘p Farg‘ona shahrida - 15,6 %, Qo‘qon shahrida - 9,9 %, Marg‘ilon shahrida 7,0%, Toshloq tumanida-5,7%, Buvayda tumanida-5,3 %, Dang‘ara tumanida-5,2 %, O‘zbekiston tumanida - 5,0%, Oltiariq tumanida 4,8 %, Bag‘dod tumanida-5,3 % ni tashkil etgan.

Iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar

birklikda


| | <i>2021- yil yanvar- dekabr</i> | <i>2022- yil yanvar- dekabr</i> | <i>Farqi (+;-)</i> |
|--|-------------------------------------|-------------------------------------|------------------------|
| Jami | 9 051 | 8 828 | -223 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | 376 | 534 | 158 |
| Sanoat | 2 110 | 1 965 | -145 |
| Qurilish | 597 | 541 | -56 |
| Savdo | 4 032 | 3 839 | -193 |
| Tashish va saqlash | 251 | 313 | 62 |
| Yashash va ovqatlanish bo'yicha xizmatlar | 639 | 595 | -44 |
| Axborot va aloqa | 257 | 209 | -48 |
| Sog'liqni saqlash va ijtimoiy xizmatlar ko'rsatish | 201 | 185 | -16 |
| Boshqa faoliyat turlari | 588 | 647 | 59 |

2022- yilning yanvar-dekabr oyida iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha yangi tashkil topgan kichik korxonalar va mikrofirmalar eng ko'p savdoda – 3 839 ta, shuningdek :




2022- yil yanvar-dekabr oylarida faoliyat yuritayotgan kichik tadbirkorlik subyektlarining soni har 1 000 aholiga 11,7 birlikni tashkil etdi.

2022- yilning yanvar-dekabrda Farg‘ona viloyatida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1000 aholiga, birlikda).



2022- yilning yanvar-dekabr oyida kichik tadbirkorlik subyektlarining soni (har 1 000 aholiga, birlikda) hududlar bo‘yicha eng yuqori ko‘rsatkich Farg‘ona shahrida 25,4 birlik, Quvasoy shahrida 16,6 birlik, Qo‘qon shahrida 21,0 birlik, Marg‘ilon shahrida 17,8 birlik, So‘x tumanida 13,6 birlik, Dang‘ara tumanida 12,8 birlik, Oltiariq tumanida 10,3 birlikni tashkil etdi. Beshariq tumanida 6,5 birlikka teng bo‘lib, ushbu ko‘rsatkich eng past bo‘lib qolmoqda.

2022- yilning yanvar-dekabr oyida shahar va tumanlar bo‘yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining soni ¹⁾
(har 1 000 aholiga, birlikda).




¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

¹⁾ Kichik korxonalar va mikrofirmalar (fermer va dehqon xo‘jaliklarini hisobga olgan holda)

Yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushini ko'payish dinamikasi, %da

2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning YaHMDagi ulushi 68,9 %ni tashkil qildi (2021- yilning yanvar- dekabr oyida 69,8%).

YaHM tarkibida kichik tadbirkorlik ulushining kamayishi yirik korxonalar ulushining oshishi bilan izohlanadi.




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida kichik tadbirkorlikning asosiy ko'rsatkichlari

| | <i>O'lchov birligi</i> | <i>2021- yil</i> | <i>2022- yil</i> | <i>Farqi (+;-)</i> |
|--|------------------------|------------------|------------------|--------------------|
| Faoliyat yuritayotgan kichik korxonalar va mikrofirmalar soni | birlik | 40 403 | 46 350 | 5 947 |
| Yangi tashkil etilgan kichik korxonalar va mikrofirmalar | birlik | 9 051 | 8 828 | -223 |
| <i>Kichik tadbirkorlik ulushlari:</i> | | | | |
| YaHM | % | 69,8 | 68,9 | -0,9 |
| Sanoat | % | 45,8 | 44,1 | -1,7 |
| Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | % | 96,0 | 95,6 | -0,4 |
| Investitsiya | % | 60,5 | 63,2 | -5,6 |
| Qurilish | % | 87,2 | 80,7 | -6,5 |
| Chakana savdo | % | 92,2 | 89,4 | -2,8 |
| Xizmatlar | % | 68,8 | 64,4 | -4,4 |
| Yuk tashish | % | 85,3 | 89,9 | 4,6 |
| Yuk aylanmasi | % | 93,3 | 94,3 | 1,0 |
| Yo'lovchi tashish | % | 94,3 | 96,4 | 2,1 |
| Yo'lovchi aylanmasi | % | 96,0 | 97,5 | 1,5 |
| Eksport | % | 51,7 | 51,6 | -0,1 |
| Import | % | 73,2 | 73,2 | 0,0 |

Kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning ulushi

(yanvar-dekabr, %da)



Hududlar bo'yicha iqtisodiyot tarmoqlarida kichik tadbirkorlik ulushlari


(2022-yil yanvar-dekabr holatiga, jamiga nisbatan, % da)

| Hududlar | Sanoat | | Qishloq, o'rmon va baliqchilik xo'jaligi | | Investitsiyalar | | Qurilish | |
|-------------------|----------|----------|--|----------|-----------------|----------|----------|----------|
| | 2021-yil | 2022-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2021-yil | 2022-yil |
| Viloyat | 45,8 | 44,1 | 96,0 | 95,6 | 60,5 | 63,2 | 87,2 | 80,7 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | | | |
| Farg'ona | 22,8 | 22,6 | 96,7 | 96,5 | 42,2 | 26,3 | 92,8 | 79,1 |
| Qo'qon | 37,4 | 32,3 | 97,8 | 97,1 | 66,6 | 76,6 | 80,9 | 84,5 |
| Quvasoy | 36,6 | 35,5 | 99,6 | 99,6 | 59,1 | 78,7 | 81,3 | 75,6 |
| Marg'ilon | 100,0 | 96,8 | 100,0 | 99,5 | 72,7 | 90,9 | 57,2 | 41,2 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | | | |
| Oltiariq | 55,3 | 48,8 | 95,5 | 93,8 | 75,2 | 82,7 | 99,3 | 99,7 |
| Qo'shtepa | 41,7 | 26,9 | 97,8 | 97,7 | 53,4 | 93,4 | 87,7 | 99,7 |
| Bag'dod | 84,0 | 76,9 | 95,8 | 97,6 | 58,7 | 81,6 | 96,8 | 95,7 |
| Buvayda | 83,7 | 78,0 | 99,9 | 99,9 | 58,5 | 78,9 | 99,4 | 99,7 |
| Beshariq | 100,0 | 100,0 | 97,1 | 96,8 | 91,6 | 84,8 | 88,0 | 96,5 |
| Quva | 33,4 | 32,0 | 98,6 | 98,5 | 63,8 | 67,9 | 99,3 | 99,4 |
| Uchko'prik | 84,3 | 85,1 | 99,5 | 99,7 | 81,5 | 95,2 | 99,2 | 99,1 |
| Rishton | 62,3 | 51,9 | 96,8 | 98,0 | 32,7 | 28,8 | 98,3 | 99,1 |
| So'x | 100,0 | 100,0 | 91,1 | 87,9 | 19,0 | 28,9 | 99,0 | 87,8 |
| Toshloq | 12,3 | 13,2 | 97,1 | 96,8 | 63,5 | 72,4 | 99,0 | 99,5 |
| O'zbekiston | 58,2 | 54,6 | 99,3 | 98,9 | 78,7 | 80,4 | 99,1 | 99,5 |
| Farg'ona | 34,5 | 25,0 | 78,5 | 74,0 | 44,4 | 39,5 | 99,1 | 78,3 |
| Dang'ara | 80,3 | 69,3 | 94,9 | 96,2 | 80,3 | 70,5 | 96,0 | 62,7 |
| Furqat | 100,0 | 96,4 | 99,9 | 99,9 | 82,6 | 76,0 | 99,5 | 99,6 |
| Yozyovon | 100,0 | 100,0 | 97,1 | 96,8 | 57,8 | 51,0 | 75,4 | 89,2 |

davomi


| | Xizmatlar | | Savdo | | Eksport | |
|-------------------|-----------|----------|----------|----------|----------|----------|
| | 2021-yil | 2022-yil | 2021-yil | 2022-yil | 2021-yil | 2022-yil |
| Viloyat | 68,8 | 63,2 | 92,2 | 89,4 | 49,5 | 51,6 |
| <i>shaharlar:</i> | | | | | | |
| Farg'ona | 25,0 | 47,8 | 81,2 | 74,8 | 42,8 | 46,6 |
| Qo'qon | 75,0 | 62,7 | 93,0 | 86,3 | 22,7 | 17,4 |
| Quvasoy | 97,7 | 74,4 | 84,0 | 91,9 | 76,1 | 68,0 |
| Marg'ilon | 98,5 | 82,3 | 98,2 | 98,8 | 95,3 | 95,7 |
| <i>tumanlar:</i> | | | | | | |
| Oltiariq | 97,1 | 80,9 | 94,9 | 93,3 | 96,5 | 96,4 |
| Qo'shtepa | 97,8 | 73,5 | 98,7 | 99,3 | 18,7 | 11,1 |
| Bag'dod | 94,8 | 72,7 | 95,6 | 97,9 | 100,0 | 95,5 |
| Buvayda | 76,4 | 57,7 | 96,6 | 96,1 | 72,3 | 71,9 |
| Beshariq | 96,2 | 72,0 | 96,6 | 97,3 | 100,0 | 100,0 |
| Quva | 93,9 | 64,1 | 96,4 | 97,7 | 54,9 | 56,4 |
| Uchko'prik | 94,8 | 58,5 | 84,1 | 72,1 | 87,4 | 99,1 |
| Rishton | 94,4 | 71,0 | 96,3 | 97,2 | 69,9 | 61,3 |
| So'x | 99,0 | 72,9 | 98,9 | 99,0 | 100,0 | 100,0 |
| Toshloq | 91,2 | 75,5 | 96,6 | 98,8 | 9,9 | 12,6 |
| O'zbekiston | 98,6 | 73,0 | 95,6 | 97,3 | 73,5 | 55,8 |
| Farg'ona | 86,6 | 68,6 | 98,8 | 98,8 | 65,2 | 57,8 |
| Dang'ara | 97,1 | 73,6 | 97,5 | 97,7 | 53,8 | 56,1 |
| Furqat | 99,7 | 80,3 | 96,8 | 97,8 | 100,0 | 52,2 |
| Yozyovon | 99,8 | 85,2 | 97,3 | 98,2 | 100,0 | 100,0 |

2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) eksporti hajmi 426,5 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy eksport hajmining 51,6 %ni tashkil etdi.






**Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)
eksportining jami eksportdagi ulushi, %da**




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmatlar) eksportining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi Beshariq tumani – 100,0 %, So'x tumani – 100,0 %, Yozyovon tumani – 100,0 %, Uchko'prik tumani – 99,1 %, Oltiariq tumani – 96,4 %, Marg'ilon shahrida – 95,7 % Bog'dod tumani – 95,5 %, ni tashkil etgan. Eng past ko'rsatkich Qo'shtepa tumani – 11,1 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari mahsulot (ishlar va xizmatlar) importining hajmi 902,9 mln. AQSh doll.ni yoki umumiy importning 73,2 %ni tashkil etdi.



Kichik tadbirkorlik mahsulotlari (tovar, xizmatlar)
importining jami importdagi ulushi, %da




2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlari mahsulotlar (tovar, xizmat) importining jamiga nisbatan eng ko'p ulushi So'x tumanida - 100,0 %, Furqat tumanida - 100,0 %, Dang'ara tumanida - 99,9 % Buvayda tumanida - 97,6 %, O'zbekiston tumanida - 97,2 %, Beshariq tumanida - 97,1 %, Marg'ilon shahrida- 97,1 %ga to'g'ri keladi. Eng past ko'rsatkich Farg'ona shahrida - 25,9 %ni tashkil etdi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari 13 398,3 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarildi.



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da sanoat mahsuloti ishlab chiqarish hajmi, mlrd. so'm




Hududlar bo'yicha eng ko'p sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi Uchko'prik tumani (2 170,0 mlrd. so'm), Qo'qon shahar (1 769,8 mlrd. so'm) Farg'ona shahar (1 544,0 mlrd. so'm), Marg'ilon shahar (1 504,7 mlrd. so'm) va Beshariq (830,5 mlrd. so'm) tumani hissasiga to'g'ri keladi. So'x tumanida (111,6 mlrd. so'm) sanoat mahsulotlari ishlab chiqarish hajmi eng past bo'lib qolmoqda.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida sanoat ishlab chiqarishining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 44,1 %ni tashkil etdi.



2022- yilning yanvar-dekabr oylarida jami sanoat mahsulotidagi kichik tadbirkorlikning hududlar bo‘yicha ulushi, %da




Hududlar kesimida kichik tadbirkorlikning jami sanoat mahsulotidagi eng yuqori ulushi Beshariq tumani (100,0 %), So‘x tumani (100,0 %), Yozyovon tumani (100,0 %), Marg‘ilon shahari (96,8 %), Furqat tumani (96,4 %) Uchko‘prik tumani (85,1 %), va Buvayda tumani (78,0 %), hissasiga tegishli. Toshloq tumanida (13,2 %) kichik tadbirkorlikning ulushi eng past bo‘lib qolmoqda.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlarining chakana tovar aylanmasi hajmi 23 254,4 mlrd. so‘mni yoki umumiy chakana tovar aylanmasining 89,4 % ni tashkil etdi. O‘sish sur‘ati 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 107,2 %ni tashkil qildi.



**2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha
kichik tadbirkorlik (biznes)da chakana
savdo tovar aylanmasi hajmi va o'sish sur'ati**




Hududlar bo'yicha eng ko'p chakana savdo tovar aylanmasi hajmi Marg'ilon shahri 4 398,9 mlrd.so'm), Qo'qon shahri (4 262,8 mlrd.so'm), Farg'ona shahri (3 736,0 mlrd.so'm), Uchko'prik tumani (1322,1 mlrd.so'm), Quva tumani (1056,0 mlrd.so'm) Buvayda tumani (844,2 mlrd.so'm), va Qo'shtepa tumani (818,9 mlrd.so'm) hissasiga to'g'ri keldi.



2022- yil yanvar - dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan amalga oshirilgan qurilish ishlari hajmi 6 906,8 mlrd.so'mni yoki qurilish ishlari umumiy hajmining 80,7 %ni tashkil etdi. O'sish sur'ati 2021- yil yanvar- dekabr oylariga nisbatan 104,4 %ni tashkil etdi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da bajarilgan qurilish ishlari hajmi va o'sish sur'ati



Hududlar bo'yicha eng ko'p bajarilgan qurilish ishlari hajmi Farg'ona shahri (1 783,6 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (521,8 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (503,4 mlrd. so'm), Qo'shtepa tumani (411,4 mlrd. so'm), Bag'dod tumani (411,1 mlrd. so'm), Toshloq tumani (352,8 mlrd. so'm) hamda Oltiariq (348,3 mlrd. so'm) tumanida qayd etildi.




2022- yil yanvar-dekabr oylarida kichik biznes subyektlari tomonidan 14 150,6 mlrd. so'mlik xizmatlar ko'rsatildi yoki ko'rsatilgan xizmatlar umumiy hajmining 64,4 %ni tashkil qildi. 2021- yilning yanvar-dekabriga nisbatan 107,2%ga o'sish kuzatildi.






2022- yilning yanvar-dekabrida hududlar bo'yicha kichik tadbirkorlik (biznes)da xizmatlar sohasi hajmi va o'sish sur'ati





Hududlar bo'yicha eng yuqori xizmatlar hajmi Farg'ona shahri (3 414,4 mlrd. so'm), Qo'qon shahri (2 028,3 mlrd. so'm), Marg'ilon shahri (997,5 mlrd. so'm), Oltiariq tumani (748,8 mlrd. so'm), Buvayda tumani (664,3 mlrd. so'm), Farg'ona tumani (610,7 mlrd. so'm), va Quva tumani (602,8 mlrd. so'm) tumanlari hissasiga to'g'ri keladi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk tashishning umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 89,9 %ni tashkil etdi. 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o'sish sur'ati 98,4 %ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yuk aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 94,3%ni tashkil etgan bo‘lib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan o‘sish sur‘ati 106,2 %ni tashkil qildi.



2022- yil yanvar-dekabr oylarida avtomobil transportida yo‘lovchi tashish xizmatlarining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 96,4 %ni tashkil etib, 2021- yilning yanvar-dekabr oylariga nisbatan 100,9 % ni tashkil qildi.

2022- yil yanvar - dekabr oylarida avtomobil transporti yo‘lovchi aylanmasining umumiy hajmida kichik biznesning ulushi 97,5 %ni tashkil etib, 2021- yil yanvar-dekabr oylariga nisbatan 99,9 %ni tashkil qildi.

